

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA TARBIYA TURLARINI SHAKLLANTIRISH

Shahrisabz davlat pedagogika instituti
pedagogika fakulteti boshlang'ich ta'lim
yo'nalishi 1-kurs 1/24- guruh talabasi

Ro'ziyeva Nigina San'at qizi

Annotasiya: Mazkur maqolada yosh avlodga tarbiya berish jarayonini takomillashtiruvchi islohotlar, samarali usullar haqida so'z boradi. Qolaversa, boshlang'ich sinf o'qituvchilarida tarbiya turlarini shakllantirish yo'llari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: tarbiya, tarbiya turlari, aqliy tarbiya, axloqiy tarbiya, jismoniy tarbiya, mehnat tarbiyasi, ijtimoiy tarbiya, ekologik tarbiya, huquqiy tarbiya, vatanparvarlik tarbiyasi, estetik tarbiya, baynalminal tarbiya.

Kirish

Tarbiya yosh avlodni ma'lum maqsad yo'lida kamol toptirish, uning ongi va xulq-atvoriini shakllantirish va rivojlantirish jarayonidir. Turli ta'riflarda tarbiya mazmuni turlicha talqin qilinsa ham ularni bitta xususiyat yosh avlodni kelgusi hayotga tarbiyalashga yo'naltirilganligi birlashtirib turadi. Turli jamiyatda har xil shart-sharoitda tarbiyaning maqsadi, mazmuni va amalga oshirish imkoniyatlari ham turlicha bo'ladi. Tarbiya jarayoni aniq tarixiy sharoitda aynan o'sha davr uchun dolzarb bo'lgan vazifalarni amalga oshirishga xizmat qiladi. Ya'ni tarbiya – shaxs ongini muayyan jamiyatning maqsad va vazifalariga muvofiq ravishda tarkib toptirish va rivojlantirish jarayoni, kishilarni ijtimoiy - iqtisodiy va madaniy hayotda faol ishtirok etishga qaratilgan barcha ta'sirlar majmuidir.

Asosiy qism

Bugungi kunda yosh avlodning ta'lim olish jarayoni bilan bir qatorda tarbiya olish jarayonida ham yuksak samaradorlikka erishish maqsadida prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan keng qamrovli islohotlar olib borilmoqda. Albatta, bu sa'y-harakatlar yoshlarning vatanparvarlik ruhida unib-o'sishida, yurt oldidagi burchlarini ado etishida, o'z xalqiga sodiq fuqaro sifatida shakllanishi uchun zamin yaratadi. Bu jarayonlarda samarali natijaga erishish uchun nafaqat maktabgacha va maktab ta'lim tizimi, balki oila, mahalla, jamiyat ham bu borada tizimli ishlashi lozim. O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimov bu borada shunday fikr yuritgan: „ ... ta'lim-tarbiya — ong mahsuli, lekin ayni vaqtda ong darajasi va uning rivojlanishini ham belgilaydigan, ya'ni xalq ma'naviyatini shakllantiradigan va boyitadigan eng muhim omildir. Binobarin, ta'lim-tarbiya tizimini va shu asosda ongni o'zgartirmasdan turib, ma'naviyatni rivojlantirib bo'lmaydi. Shu boisdan bu sohaga yuzaki, rasmiy yondashuvlarga, puxta o'ylanmagan ishlarga mutlaqo yo'l qo'yib bo'lmaydi... Shuni unutmasligimiz kerakki, kelajagimiz poydevori bilim dargohlarida yaratiladi, boshqacha aytganda, xalqimizning ertangi kuni qanday bo'lishi farzandlarimizning bugun qanday ta'lim va tarbiya olishiga bog'liq.

Biz boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun ta'lim jarayonini tashkil etar ekanmiz, shu o'rinda tarbiya turlarini ham dars jarayoniga singdirib yuborish muhim ahamiyat kasb etadi. Tarbiyaning kelajak avlodni jamiyat talablarini rivojlantirishdan iborat asosiy vazifasiga erishish uchun yosh avlod shaxsining har tomonlama – axloqiy, jismoniy va aqliy barkamollikka erishishi, mehnatsevar inson bo'lib kamol topishi lozim. Bu maqsadlarni amalga oshirishda tarbiya jarayoni shartli ravishda turlarga ajraladi. Tarbiyaviy ishlarning xususiyati va yo'nalishiga ko'ra boshlang'ich sinf o'qituvchilarida quyidagi tarbiya turlarini namoyon etish kerak:

* axloqiy tarbiya – bolaning jamiyatga, odamlarga bo'lgan munosabat tizimini tarkib toptirishdagi tarbiyaviy jarayon. Insonning axloqiy fazilatlarini bolalikdan boshlab rivojlanadi. Kichik yoshdagi bolaning axloqiy tarbiyasi kattalar bilan bo'lgan

munosabatlardan boshlanadi. Bola kattalar bilan qanchalik ko'p munosabatda bo'lsa, uning atrofidagi muhitni emotsional idrok qilishi shunchalik faollashadi. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarida axloqiy tarbiyani shakllantirish uchun ularga sabr-bardoshlilik, odamiylik, o'z manfaatidan boshqalarning manfaatini ustun qo'ya olishlik, oliyjanoblik, xushmuomalalilik kabi ijobiy xususiyatlarni shakllantirish lozim. O'quvchilarda ushbu axloqiy sifatlarni shakllantirish uchun yuqorida ta'kidlangan ijobiy fazilatlar singdirilgan ertaklar, hikoyalar, rivoyatlar, ibratli voqealarni o'rganish hamda shu mavzu yuzasidan bahs-munozaralar yuritish ijobiy natija ko'rsatadi.

* axloqiy tarbiya – bilimlarni to'plash, ularni tahlil eta olish, narsa va hodisalarni taqqoslay olish, umumlashtirish va ularni tizimlashtirishni qamrab oladi. Yosh o'quvchilarda aqliy tarbiya ta'lim, o'yin, mehnat jarayonida, kattalar va tengdoshlar bilan bo'lgan muloqotda shakllanib boradi.

* baynalminal tarbiya – millati, irqi, urf-odati, qayerda yashashidan qat'iy nazar turliillat bolalarini o'zaro ahil, do'stona ruhda yashash bilan tarbiyalab borish. („baynalminal“ so'zi arabcha „ millatlararo“ degan ma'noni bildiradi) Boshlang'ich sinf o'qituvchilarida baynalminal tarbiyani shakllantirish uchun, avvalo, yosh avlodni chet tillarini o'rganishga bo'lgan qiziqishini oshirish darkor. Qolaversa, yoshlarni o'zga millat tarixi, urf-odatlari, qadriyatleri, madaniyati bilan tanishtirish ham yaxshi samara beradi.

* vatanparvarlik tarbiyasi – Vatanni sevish, uni jon-dili bilan himoya qilish tuyg'ularini ilk yoshligidan bola qulog'iga quyish demakdir. Bu tuyg'u shu Vatanning egasi bo'lmish xalqni bilishdan, uning qadriga yetishdan boshlanadi. Vatan va xalq egizak, mushtarak tushuncha. Birini his etish uchun ikkinchisini bilmoq lozim. Murg'ak qalb sohiblari bo'lmish bolajonlar qalbiga vatanparvarlik hissi turli xil tadbirlar, tomoshalar, tarixiy obidalarga sayohat qilish, milliy liboslarni keng targ'ib qilish, milliy qadriyatlarga sodiq qolish orqali olib kirish mumkin.

* jismoniy tarbiya – sog'liqni mustahkamlash, inson organizmini rivojlantirishga qaratilgan umumiy tarbiyaning o'zaro uzviy tarkibi. Jismoniy tarbiya jamiyatdagi jismoniy madaniyatning darajasini ko'rsatib turuvchi belgilaridan biri hisoblanadi. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarida jismoniy tarbiyani rivojlantirish ularning ham jismonan, ham aqlan yetuk inson bo'lishiga yordam beradi.

* ijtimoiy tarbiya – oila tarbiyasi, mahalla tarbiyasi, maktab tarbiyasi, o'rta maxsus va oliy ta'lim tarbiyasi, jamoatchilik tarbiyasi kabi omillardan tashkil topgan ma'naviy-ma'rifiy jarayon. Bunda boshlang'ich sinf o'qituvchilarida ijtimoiy tarbiyani shakllantirishda, yuqorida keltirilganidek, oila, mahalla, jamiyat ham birdek mas'ul.

* iqtisodiy tarbiya – iqtisodiy bilimlarni muntazam oshirib borish, xo'jalik yuritish vazifasi va malakasini oshirish. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, yosh avlodga tejamkorlik, qulay usullarda ish olib borishni, mantiqiy va kreativ fikrlashni o'rgatish lozim. Bular ham iqtisodiy tarbiyani shakllantirishga imkon yaratadi.

* mehnat tarbiyasi – tarbiyaning muhim turi, shaxsni shakllantirishning zarur shartlaridan bo'lgan pedagogik jarayon. Mehnat tarbiyasi shaxsni har tomonlama rivojlantirishning ajralmas qismidir. Mehnat tarbiyasi kishidan ijtimoiy foydali mehnatga ichki ehtiyoj, intizom, batartiblik, tashkilotchilik, tashabbuskorlik, ishchanlik, ishni ko'zini bilish singari sifatlarni qaror toptirishga xizmat qiladi. Tarbiyaning bu turini yosh avlodga bog'chada, maktabdagina emas, balki yoshligidanoq oiladan boshlash ma'qulroq. Chunki jismoniy mehnatda chiniqqan har bir inson sog'lom tanga ega bo'lishi bilan birga sog'lom fikr ham yurita oladi.

* ekologik tarbiya – ekologik madaniyatni shakllantirish, tabiatni asrab-avaylash va unga ijobiy munosabatda bo'lish. Ekologik tarbiyani shakllantirish uchun bolalarni sayrga olib chiqish, tevarak-atrof bilan tanishtirish, o'simlik va hayvonlarni parvarish qilishni o'rgatish, tabiat haqidagi filmlar tomosha qilish va radioeshittirish larni tinglash kabi ajoyib usullardan foydalanish mumkin.

* estetik tarbiya – tabiat, ijtimoiy hayot, san’atdagi go’zallikninhis qilish kabilarni o’rganish. Boshlang’ich sinf o’qituvchilarini estetik tarbiyasini oshirishda ularning ozoda kiyinishi, atrofini, ya’ni xonasini tartibli saqlashi, saranjom-sarishta qilishi, o’ziga e’tiborli bo’lishi mumkin him rol o’ynaydi.

* huquqiy tarbiya – jamiyat vakillari, shu jumladan yosh avlodga huquqiy bilimlarni singdirib borish jarayoni. Boshlang’ich sinf o’qituvchilari huquqiy savodxonligini maktabda oshirishi bilan cheklanib qolmasdan ommaviy axborot vositalari, radio, televideniya yordamida olib boriladigan huquqiy targ’ibotlarga ham diqqat qaratsa, ijobiy ta’sir ko’rsatadi.

Xulosa

Muxtasar qilib aytganda, zamonaviy ta’lim tizimida boshlang’ich sinf o’qituvchilarining tarbiyaviy yondashuvlari va uslublarini doimiy ravishda takomillashtirib borish, ularni yangi pedagogik bilimlar bilan boyitish ta’lim sifatini oshirishning muhim omilidir. Shu bois, ta’lim siyosati va boshqaruv tizimi o’qituvchilarning pedagogik malakasini oshirishga doimiy e’tibor qaratish kerak. Umuman olganda, boshlang’ich sinf o’qituvchilarida tarbiya turlarini shakllantirish – bu nafaqat individual shaxslarni tarbiyalash, balki jamiyatning ijtimoiy barqarorligi milliy qadriyatlarning saqlanishi uchun asosiy poydevori hisoblanadi. Ushbu jarayonning muvaffaqiyati ta’lim tizimidagi tomonlarning hamkorligiga, o’qituvchilarning yuqori pedagogik madaniyatiga va innovatsion yondashuvlarga asoslangan holda amalga oshirilishiga bog’liq.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ibrohimov A. va boshq. Vatan tuyg’usi / A. Ibrohimov, X. Sultonov, N. Jo’rayev. — T.: O’zbekiston, 1996. 121-bet.
2. Karimov I. A. Yuksak ma’naviyat — yengilmas kuch. — T.: Ma’naviyat, 2008. 61-bet.

Tarbiya:(ota-onalar va murabbiylar uchun ensiklopediya)/tuzuvchi M.N.Aminov, mas'ul muharrir M.A.Majodov.—T.:, O'zbekiston milliy ensiklopediyasi “ Davlat ilmiy nashriyoti, 2010.27-bet.

A.Musurmanova va boshq. Umumiy pedagogika:Q.1-2: O'quv qo'llanma.—T.:,O'zkitobsavdonashriyoti“,2020.100-101-bet.